JAMOAT XAVFSIZLIGINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY MUHITNING TA'SIRI

Shamsiyev Mirjalol Umirzoqovich,
SamDU tadqiqotchisi

Xavfsizlik masalasi har bir jamiyat, har bir millat va Davlat uchun eng muhim atributiv tamoyillardan biri sanaladi. Butun bir jamiyat evolyutsion taraqqiyotiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, har qanday davrda tinchlik insoniyat uchun eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etilganiga amin bo'lamiz. Tinchlikni ta'minlanishi esa xavfsizlik borasida olib borilgan turli-tuman ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy islohotlar orqaligina amalga oshirilgan.

Bugungi global taraqqiyot zamoniga kelib, aynan xavfsizlikni ta'minlash masalasi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki bugungi kunda xavf-xatar omillarining ko'rinishlari tubdan o'zgarib, zamonaviy shakldagi xavfsizlikka tahdid soluvchi ta'sirlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Bugungi xavf omillarini hattoki, ko'z bilan ko'rib, ilg'ab bo'lmasligi, ayniqsa, insoniyatning, ongi, tafakkuri, qalbini egallashga qaratilgan ko'rinmas ta'sir doiraga egaligi butun dunyo jamoatchiligini xavotirga solmoqda. Misol uchun axborot xurujlari, xilma-xil shakldagi mafkuraviy qurollar, g'oyaviy ta'sirlar, kiberolamdagi xavflar shular jumlasidandir. Shuning uchun ham bugungi kunda xavfsizlikni ta'minlashning zamonaviy usul va vositalarini ishlab chiqish, ilmiy-falsafiy tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etish zarurat hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham azal-azaldan tinchlik masalasiga aksiologik munosabatda qaralgan. Zardo'shtiylik ta'limotining muqaddas manbasi "Avesto"da ham, islom ta'limoti, buyuk mutafakkir allomalarimiz falsafiy qarashlari, ma'rifatparvar jadidlarimiz ilmiy ijodiyoti, mustaqillik yillarida yaratilgan asosiy ilmiy, ijodiy, falsafiy-huquqiy manbalarda ham tinchlikni ta'minlash, ya'ni xavfsizlik masalasi eng muhim masalalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yilgan. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov faoliyatida ham mamlakatimizda xavfsizlikni ta'minlash muammosi eng muhim o'ringa qo'yilgan. Ayniqsa

I.Karimovning mamlakatimiz xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar sifatida mintaqaviy mojarolar, diniy ekstrimizm va fundamentalizm, etnik va millatlararo ziddiyatlar, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik, ekologik muammolar kabi bir qancha omillarni sanab, ularning har biriga ilmiy-nazariy jihatdan munosabat bildirgani diqqatga sazovordir[1]. Bugungi kunda ham mamlakatimizda xavfsizlik borasida yanada izchil, tizimli va samarali islohotlar davom ettirilmoqda. Ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta'minlashga, mamlakat xavfsizligini ta'minlashdagi muhim stratetgik yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Jamoat xavfsizligi — shaxs, jamiyat va davlatning jinoyatchilik, boshqa huquqga xilof harakatlar, favqulotda holatlar oqibatlari, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, epidemiya, yirik holatlar avariya shuningdek yong'inlarda himoyalanganlik holatini ifodalash maqsadida qo'llaniladigan tushuncha[2] hisoblanadi. Demak, mamlakatdagi har bir soha va tarmoqning xavfsizligini ta'minlanishi jamoat xavfsizligi orqali amalga oshiriladi. Shu boisdan ham mazkur masalada mamlakatimizda davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, bu borada qonunchilik sistemasi ham tubdan isloh etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son hamda "O'zbekiston respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 29.11.2021 yildagi PF-27-son Farmoni fikrimiz dalilidir. Ushbu Farmonlarda mamlakatimizdagi xavfsizlikni ta'minlash sistemasining barcha funksional elementlariga e'tibor qaratiladi. Shu bilan bir qatorda bizningcha, bu muammoni nafaqat, huquqiy doirada, balki ijtimoiy-falsafiy kontekstda tahlil etilishi samarali natijalarni beradi. Bunda esa, butun bir ijtimoiy tizimning barcha harakatga keltiruvchi elementlari ishtirok etishi, ya'ni,

[1] Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.
[2] O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jamoat_xavfsizligi.

xavfsizlikni ta’minlashda, ta’lim-tarbiya sistemasidan tortib, butun bir fuqarolik jamiyati institutlari mas’uliyat bilan yonsdashuvi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida mulohaza yuritadigan bo‘lsak, xavfsizlik va jamoat xavfzizligi bir-birini to‘ldirib turuvchi, biri ikkinchisini taqozo etuvchi xususiyatga ega bo‘lib bu masalani ilniy-nazariy, falsafiy-konseptual tahlil etish, bugungi kundagi zamonaviy xavf-xatar omillarini oldini olishda hamda ularga qarshi samarali kurash olib borishda asosiy strategik, metodologik, funksional asos bo‘lib xizmat qiladi.